



## O'ROZ HAYDAR SHE'RIYATI LEKSIKASIDA O'Z QATLAM VA O'ZLASHMA QATLAM

**Rajabova Nargiza**

*Lingvistika (o'zbek tili) 2-kurs magistranti*

**Annotatsiya:** Maqolada O'roz Haydar she'rlarida qo'llanilgan o'z va o'zlashma qatlamga oid so'zlar tahlil qilindi.

**Kalit so'zlar:** o'z qatlam, o'zlashma qatlam, kalka, o'zicha olish, kalkalab olish, yarim kalka, to'liq kalka, semantik kalka.

**Abstract:** In the article, the words used in the poems of Oroz Haydar were analyzed, referring to the native and foreign layers.

**Key words:** native layer, native layer, mapping, self-imaging, imitating, half-imaging, full-imaging, semantic mapping.

**Абстрактный:** В статье проанализированы слова, используемые в стихотворениях Ороза Хайдара, относящиеся к родному и зарубежному пластам.

**Ключевые слова:** нативный слой, нативный слой, картографирование, самоизображение, имитация, полуизображение, полноизображение, семантическое картографирование.

Hozirgi global rivojlanish jarayoni ilm-fan sohasining har jabhasiga jadallik bilan kirib bormoqda. Ilm-fan sohasidagi o'zgarishlar tilda o'z aksini topmasdan qolmaydi. Buning natijasi o'laroq o'zbek tili leksik qatlami yangi so'zlar hisobiga ko'payib boraveradi. Tilning leksik zaxirasi ikki xil usul bilan boyiydi:

1. O'zbek tilining ichki imkoniyati asosida boyishi – o'z qatlam.
2. Tashqi imkoniyat asosida boyishi – o'zlashma qatlam.

Manbada keltirilishicha, “o'z qatlamga o'zbek tilining o'ziniki bo'lgan, shuningdek turkiy tillar uchun umumiy bo'lgan so'zlar kiradi. O'zbek tili lug'at sostavida turkiy tillar uchun umumiy bo'lgan so'zlar anchagina qismni tashkil etadi”<sup>1</sup>. Ko'rinadiki, o'z qatlamni tashkil qiluvchi so'zlarning o'zi ham ikki guruhga bo'linadi. H. Jamolxonovning fikriga ko'ra, “umumturkiy so'zlar – o'zbek tili leksikasining eng qadimgi lug'aviy birliklaridir. Ularning ayrimlari hozirgi qozoq, qirg'iz, turkman, ozarbayjon tillarida ham saqlangan. Qiyos qiling: *bosh* ( o'zb.) – *bas* (qoz., qora.q) – *bash* (qirg'., turkm.); *sof o'zbekcha so'zlar* – o'zbek tilining o'zida yasalgan leksemalardir.”<sup>2</sup>

*O'zlashma qatlam* – o'zbek tili leksikasiga boshqa tillardan o'zlashgan leksemalar. Bunda ham so'z o'zlashtirish ikki xil usulda bo'ladi.

<sup>1</sup> Sh. Shoabdurahmonov, M. Asqarova, A. Hojiyev va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent, 1980. – B.121

<sup>2</sup> H. Jamolxonov. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Talqin, 2005. – B.188



1) *O'zicha olish*. Bu usulda boshqa tillardan olinadigan soʻzlar biror bir oʻzgarishsiz yoki ayrim fonetik oʻzgarishlar bilan olinadi. Masalan, *gul* (fors-tojikcha), *xat* (arabcha), *telegram* (inglizcha) kabi.

Tilimizda soʻzni oʻzicha olish usuli koʻpincha forsha, arabcha, inglizcha, ruscha va rus tili orqali boshqa tillardan oʻzlashgan soʻzlarda namoyon boʻladi.

2) *kalkalab olish*. “*Kalka* (fran. *calque* – kopiya, taqlid). Oʻzga til materialidan qismma-qism nusxa olish yoʻli bilan hosil qilingan soʻz yoki boshqa bir til birligi. Kalkalar leksik, semantik, frazeologik boʻlishi mumkin. Oʻzga tilning leksik, frazeologik birliklarining modellari asosida oʻz til unsurlaridan foydalanib yangi soʻz yoki frazeologik birlik hosil qilish<sup>3</sup>.

Oʻroz Haydar sheʼriyati leksikasida ham oʻz qatlamga mansub soʻzlar talaygina.

Oy *tangasin* yoʻqotgan koʻkda,

Soʻnib borar *yulduzlar* shami.

*Tun* qaygʻuli – adashgan qizday,

*Kelmas* unga hech kimning rahmi. (“*Tun haqida qoʻshiq*” sheʼri)

Adib sheʼrlarida oʻzbekcha soʻzlardan mahorat bilan foydalanadi: *kutmoq, otam, qilmoq, kun, qush, uchmoq, yurak, kurak, uchmoq, aytmoq, ona, aka, tosh, yonmoq, kuymoq, titramoq, quvonch, bola, keng, tortiq, soʻrmoq, qanot, qoqilmoq, olmoq, jim, ovutmoq, qurimoq, ochilmoq, koʻk, kurak, yer, tegizmoq, qoʻymoq, chizmoq, titmoq, turna, koʻchkin, qaytmoq, elamoq, yurt, tuproq, chiroy, soch, qosh, qaramoq, biz, bir, koʻz, koʻksi, titramoq, quvonch, koʻz, yigʻlamoq*.

Sh. Rahmatullayev oʻz qatlam leksemalarni oʻzlashma qatlamga xos leksemalardan farqlash har doim ham yengil boʻlavermasligini taʼkidlagan va bu soʻzlarni bir-biridan ajratib olish usullari haqida toʻxtalib oʻtadi. “Tovush tuzulishi jihatdan oʻz qatlamga xos leksemalarning asosiy belgilari deb quyidagilarni koʻrsatish mumkin:

1) Oʻzbekcha tub leksemalar asosan bir boʻgʻinli, qisman ikki boʻgʻinli boʻladi (uch boʻgʻinli, hatto ikki boʻgʻinli leksemalar tarixan hosila leksema boʻlib chiqadi);

2) Bir boʻgʻinli soʻzlarda CVC turi asosiy oʻrinni egallaydi, VC turi ikkinchi oʻrinda, CV turi esa uchinchi oʻrinda turadi;

3) Ikki boʻgʻinli leksemalar koʻpincha ochiq boʻgʻinlardan tuzilgan boʻladi;

<sup>3</sup>A. Hojiyev. Tilshunoslik terminlarining izohli lugʻati. – Toshkent.: “Oʻzbekiston milliy ensklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2002. – B.47





4) O'zbekcha leksemalar r, l, v, h tovushlari bilan boshlanmaydi...  
... Grafik jihatdan o'zbekcha leksemalarda tutuq belgisi ishlatilmaydi.  
Leksemalarning mazmun jihati ham ularning o'z qatlamga yoki o'zlashgan qatlamga mansubligidan dalolat berib turadi. Ma'no tarmoqlanishi ko'pincha o'z qatlamga mansub leksemalarga xos bo'ladi<sup>4</sup>.

Bu fikrlarga asoslangan holda, O'roz Haydar she'riyati leksikasida ham o'z qatlam so'zlarni yuqoridagi tartibda farqlab olish mumkin. Masalan,

*Bir qush kabi uchguday bo'lsam,  
Parvozimga qanot tutadi.  
Yo nogohon yo'lda qoqilsam,  
Kaftga olib jim ovutadi.*

Yuqoridagi parchada "bir", "qush", "bo'l", "yo'l", "jim" kabi leksemalar CVC sxemaga to'g'ri kelsa, "uch", "ol" kabi so'zlar VC sxemasiga mos keladi. Shu bilan birga shoir she'rlarida VC sxemasiga mos keladigan so'zlar ham uchraydi.

*Shu lahza o't qo'yar o'ziga osmon,  
Mabodo nam tegsa kiprigingizga. ("Shoirlarga" she'ri)  
Men neni o'ylayapman, nima deyapman,  
Nega yuragimda charx urar nido. ("Xavfli o'y" she'ri)  
Do'stlarimdan ko'ra g'amimni yeysiz,  
Ermakman gul kabi qo'lingizda men. ("Bu yo'l..." she'ri)*

"Leksik-semantik jihatdan o'z qatlamga mansub so'zlar ko'p ma'nolilik xususiyatiga ega bo'ladi. Bu qatlamda "qon-qarindoshlik", "inson a'zolari", "uy hayvonlari", "yovvoyi hayvonlar", "parrandalar", "mehnat faoliyati", "uy-ro'zg'or buyumlari", "rang-tus", "maza-ta'm", "miqdor", "sanoq", "harakat", "holat", "urf-odat" ma'noli so'zlar ko'pchilikni tashkil etadi"<sup>5</sup>.

Qo'qqisdan tashlangan singari yo'lbars,  
Quyoshni *parchalar vahshiy* qaldiraq. ("Mening qo'nalg'am" she'ri)  
Shoirning "Mening qo'nalg'am" she'rida qo'llanilgan "parchalamoq", "vahshiy" leksemalari ma'no ko'chishiga asos bo'lganini ko'rishimiz mumkin.

Boshqa *chiroqlar ham tilin* tiyganmish,  
*Tildan* uchinarmish yongani zamon. (" " she'ri)

Bu misolda ham *chiroq* va *til* so'zlarining ko'chma ma'noda qo'llanganini ko'rish mumkin.

<sup>4</sup>Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. – Toshkent, 2006. – B.106

<sup>5</sup>Jomolxonov. H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Talqin, 2005. – B.189



O‘roz Haydar she’rlarida ham o‘zlashma so‘zlardan unumli foydalangan.

a) arab tilidan o‘zlashgan so‘zlar: *sunbul, mas’um go’dak, gala, raqs, giyoh, alhol, sabo, falak, zulmat, tabassum, marhum, odam, sahar, vatan, qatra, ufq, falak, lahza, kitob, junun, alaf, ta’na, maosh, ba’zan, mulzam, asr, fikr, vujud, musavvir, havo, rahm, ma’yus, zulmat, hujum, asir, mahkum, hisobot, hayot, shaffof, ayon, lahza, tarh, sukunat, g‘ul, imo, tavallo, qalb, qahat, hafsala, nafrat, sabr* va h.k.

*Qatra* qonday silqidi *ufq*  
Kuygan *falak* kulini sochdi.  
*Lahzalarni* poralab betig‘,  
Xufton olov *kitobin* ochdi. (“*Kechikkan fasl*”)

*Odam* qo‘rqan kabi *odamdan*,  
Yostig‘ini ostida tig‘ yo‘q.  
Bir-birini qonga bo‘yash chun,  
*Sahar* turib o‘qtalmas miltiq. (“*Qushlar*” she’ri)

Bilmas emish *nafrat* neligin,  
Cho‘milarmish *sabr* seliga.  
Belbog‘ini yo‘qotganmikin,  
Bog‘lamasmish belbog‘ beliga. (“*Nuj*” she’ri)

*Rahm* ko‘zi bilan qarama menga,  
Sen yutgan *havodan* nafas olmayman  
O‘zimni urmasman duch kelgan inga,  
Hargiz bog‘lab qo‘yma, bunda qolmasman. (“*Kechikkan fasl*”)

b) fors tilidan o‘zlashgan so‘zlar: *go’dak, gala, gung, bo‘y, koshki, parvoz, hamroh, oshyon, bog‘, xonish, do‘st, hech, nola, lola, xufton, ogoh, kulba, xazon, oftob, xushnud, devor, darz, parvoz, besar, hargiz, shabnam, barg, quyosh, hamon, poygak, xurjun, hanuz, baxt, zamin, ozod, do‘zax, behisht, chorpoya, osmon, agar, zamin, balki, tovon, paykon, choh, orzu...* va h.k.

Mo‘ralab qaraydi *devordan quyosh*  
*Shabnamda* chayingan qizdek uyatchan.  
O, u shaffof kunlar bamisli ko‘z yosh,  
Qayga to‘kilganin *hanuz* bilmayman. (“*Xurjun*” she’ri)





Ortiqcha odamman zaminda, balki,  
Oyog'im tuproqqa teggani uchun  
Hayotimga katta *tovon* to'larman. ("Otam hikoyasi" she'ri)

c) ruscha so'zlar: *mayoq, mamont, stol, kreslo*.

Oynayi jahonga qarar er-xotin,  
Ikki *kresloda* ikkita qutb. ("Taqqos" she'ri)

d) lotincha so'zlar: *traktor, iks, dinovavr, era*.

Ayollar – *traktor*, erkaklar – *plug*,  
Shudgorlar yurakning dalalarini. ("Otam hikoyasi" she'ri)

Yuqoridagilardan tashqari, shoir she'riyatida fransuz (*milliard*), ispan (*tamaki*), yunon (*aksioma, gimn, xor*), nemis (*flyuger, plug*) yoki yunon tilidan (*cherkov*) kirgan so'zlar hamda fors tili orqali hind tilidan (*bangi*) o'zlashgan leksemalar ham mavjud.

**Kalkalash** usuli bilan olingan so'zlar ham shoir ijodida bir qancha o'rinlarda uchraydi. "Bunda boshqa tildagi (mas., rus tilidagi) sozning morfemik tarkibidan qismma-qism nusxa olish orqali o'zbekcha so'z yasaladi va shu so'z bilan boshqa til leksemasining ma'nosi ifodalanadi"<sup>6</sup>. Tilshunosligimizda kalkalashning bu usulini **to'liq kalkalash** deyilsa, "so'z strukturasi o'zga til va o'z til komponentlari ishtirok etishi"<sup>7</sup> **yarim kalka** deb ataladi.

*Somon yo'li* – asrlik nola,  
Xayollar lol yurak esa gung. ("Sumbul oqshomi" she'ri)

*Vaznsizlik* kabi uchib yurar Yer,  
Yer kabi odamlar uchar beqanot. ("Udum")

"*Sumbul oqshomi*" she'rida keltirilgan "*Somon yo'li*" (*Млечный путь*), "*Udum*" she'rida qo'llangan "*vaznsizlik*" (*невесомость*) kabi so'zlar to'liq kalkaga misol bo'la oladi. Shu bilan birga ijodkor she'rlarida yarim kalka so'zlar ham talaygina.

Bu ne majlis *navosozlar navosizdir*,  
Ishq bazmida maloiklar *hayosizdir*. ("Qo'shiq" she'ri)

Kalka asli leksema o'zlashtirishdagi grammatik usul hisoblanadi, chunki kalkalash leksema tarkibidagi ma'noli qismlardan nusxa olishga asoslanadi<sup>8</sup>. Shu bilan birga tilshunosligimizda grammatik kalkadan tashqari semantik kalka ham

<sup>6</sup> Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Talqin, 2005. – B.196

<sup>7</sup> Shoabdurahmonov Sh., Asqarova M., Hojiyev A., Rasulov I., Doniyorov X. Hozirgi o'zbek adabiy tili, 1-qism. – Toshkent, 1980. – B.123

<sup>8</sup> Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. – Toshkent, 2006. – B.110



mavjud. **Semantik kalkada** yangi soʻz yasalmaydi, balki tilda avvaldan mavjud boʻlgan baʼzi leksemalarga boshqa til leksemasining biror maʼnosini yuklash orqali soʻz oʻzlashtiriladi. H.Jamolxonovning izohicha, *til* soʻzi «soʻzlashuv quroli» nomi sifatida ruscha *язык* soʻziga ekvivalentdir. Ayni shu holat rus tilidagi *yazik* soʻzining “*asir*” maʼnosini oʻzbek tilidagi *til* soʻzi bilan ifodalashga turtki boʻlgan. Darhaqiqat, Oʻroz Haydar ijodida mana shu tahlilning ayni namunasi keltirilgan.

Baxt degani lazzatbaxsh xoʻrak,

Erk degani dushman tutgan “*til*”.

Xulosa qilib aytganda, Oʻroz Haydar ijodida, ayniqsa, tahlilga tortilgan “Kechikkan fasl” sheʼriy toʻplamida, nafaqat oʻz qatlamga mansub soʻzlar, balki, oʻzlashma qatlamga, xususan, arab va fors tiliga mansub soʻzlar salmoqli oʻrin egallagan. Bundan tashqari, rus, yunon, lotin va boshqa tildagi soʻzlar ham oz boʻlsa-da, mavjud. Shoir sheʼriyatida kalkalash yoʻli bilan olingan soʻzlar ham qoʻllanilgan.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Oʻroz Haydar. Kechikkan fasl. – Toshkent: Sharq, 2010.
2. Jamolxonov H. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. – Toshkent.: Talqin, 2005. – 272b.
3. Shoabdurahmonov Sh, Asqarova M, Hojiyev A, Rasulov I, Doniyorov X. Hozirgi oʻzbek adabiy tili, 1-qism. Toshkent.: ”Oʻqituvchi”, 1980. –450b.
4. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy oʻzbek tili. – Toshkent.: Universitet, 2006. – 464b.
5. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lugʻati. – Toshkent.:“Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2002. –
6. Oʻzbek tilining izohli lugʻati. Birinchi jild – T.: .:“Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006.-680 b.
7. Oʻzbek tilining izohli lugʻati. Ikkinchi jild – T.: .:“Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006.-680 b.
8. Oʻzbek tilining izohli lugʻati. Uchinchi jild – T.: .:“Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006.-690 b.
9. Oʻzbek tilining izohli lugʻati. Toʻrtinchi jild – T.: .:“Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006.-610 b.
- 10.Oʻzbek tilining izohli lugʻati. Beshinchi jild – T.: .:“Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006.-600 b.